



MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATIDA SHAHAR MADANIYATI VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI

To'rayeva Sharifa Egamberdievna
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Namangan viloyati va shaharning tarixiy, moddiy-madaniy meros to'g'risida ko'plab qiziqarli, ilm-fanga tegishli bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni bayon qilishimiz, hamda o'rganib bilishimiz zarurligi hamda Namangan viloyati va Namagan shahrida boshqa joylardagi arxeologik, madaniy va tarixiy yodgorliklarni - o'z o'tmish merosimizni sinchiklab o'rganish, ularni ko'z qorachig'iday saqlash, kelgusi avlodlarga ham jonli, ishonarli guvoh, dalil sifatida qoldirish zimmamizdagi ma'suliyatli ma'naviy burchimiz ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

"Barchamiz Namangan viloyati deganda, avvalo go'zal va betakror bir o'lkani mana shu tabarruk zaminga ulkan mehr va sadoqat bilan yashayotgan, mustaqilligimizni mustahkamlash va Vatanimizni yanada ravnaq toptirish yo'lida tinim bilmasdan mehnat qilayotgan, fidoyi va bag'ri keng insonlarni ko'z oldimizga keltiramiz", degan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarining birida. Viloyatimizda jami 250 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud. Ana shu merosni o'rganish, uni avaylab-asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish bizning sharaflı va mas'uliyatlı burchimizdir.

Namangan viloyati va Namagan shahrida joylashgan arxeologik yodgorliklari tarixini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq etish quyidagi omillarga ko'ra dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi:

- ❖ **Birinchidan.** Hozirgi davrga qadar Namangan viloyatida shahar madaniyati yaxlit bir ilmiy muammo sifatida arxeologik materiallar asosida tadqiq qilinmagan;
- ❖ **Ikkinchidan.** Namangan viloyati va Namagan shahrida O'zbekistonning boshqa hududlari singari insoniyat qadimdan yashab kelayotgan makonlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu qadimiy makon jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rniga egaligini yana bir bor tasdiqlashi shubhasizdir
- ❖ **Uchinchidan.** Mazkur muammoni tarixiy jihatdan tadqiq etish orqali jahon tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, insoniyatning eng qadimiy makonlaridan biri O'zbekistonning eng go'zal hududlaridan biri bo'lgan Namangan viloyatining tarixi, uning hududida joylashgan qadim osori-atiqalar, ya'ni arxeologik makonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlarini birmuncha to'laqonli anglash imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston tarixining o'ziga xosligini keng jamoatchilikka yetkazishda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi



1-rasm. Bugungi kunda Namangan shahar infratuzilmasidagi o‘zgarishlar.

Mustaqillik yillarda Namangan viloyati shahar madaniyati tarixi hozirgi qadar alohida tadqiqot ob’yekti sifatida o’rganilmagan. Bunga quyidagi omillarni sabab qilib qayd etish mumkin:

1. Namangan shahrining vodiyning boshqa shaharlariiga nisbatan kech paydo bo’lganligi.
2. Qo’qon xonligi hukmronligi davrida Namangan shahrining xonlik iqtisodiyotida va siyosiy hayotida o’rnining kamligi.
3. Sovet davrida Namangan viloyatining ma’muriy tizmida tez-tez sodir bo’lib turgan o‘zgarishlar.
4. Viloyat shaharlari tarixiga oid manbalarning yetarli emasligi.

Namangan shahrining go’zal va so’lim shahar hisoblanishi va shuningdek “Gullar shahri” deb atalishi to’g’risida ham go’zal bir rivoyat mavjud: - Buxoro hukmdorlaridan biri Namangan atrofidan o’tayotib, shu yerda to’xtab dam oladi, so’ngra esa bu so’lim maskan unga juda yoqib qoladi va o’z yaqinlaridan birini shu yerda qoldirishga qaror qiladi. Unga maxsus yorliq berib, shu yerda shahar barpo qilish vazifasini yuklaydi. Yoliqda Namanganning to’rt fazilatga ega bo’lishi, ya’ni go’zal, so’lim, obod va gullar shahriga aylanishi alohida ta’kidlanadi.

Shaharning g’arbiy qismida Sardoba dahasi joylashgan. Bu yerda o’tmishda qurilgan sardoba bo’lgan. Mutahasislar fikricha, O’rta Osiyoning bepayon cho’llari, suvsiz dashtlari bo’ylab o’tuvchi savdo yo’llaridagi karvonlar, qo’shinlar, sayyoohlar hamda bu hududdagi chorvadorlarning suvga bo’lgan doimiy extiyoji sardobalarini barpo etishga olib kelgan asosiy sababdir. Mutahasislar fikriga ko’ra, sardoba so’zi forscha “sard” – sovuq, muzdekk va “ob” – suv so’zlarining qo’shilishdan yasalgan bo’lib, “sovuj suv”, “muzdekk suv” ma’nosini beradi. Shu bilan birga “Sardob” atamasi Qazvindagi sharshara va Ispaniyadagi orol nomida ham uchrashini alohida ta’kidlash kerak. Sardoba dahasida hozirgi To’raqo’rg’on, Aksi, Qo’qon, G’alcha va Marg’ilon ko’chalari kirgan. Dahadagi har bir ko’cha, mahalla va aholi savdo – sotiq qiladigan joylarning ham o’z nomlari bo’lgan. Sardobalar markazda bo’lgani uchun uning atrofi turli – tuman hunarmanchilik ustaxonalari, savdo – sotiq qilinadigan gavjum joylar hisoblanardi. Masalan, Qo’qon ko’chaning boshlanish qismida ko’mir bilan savdo qilinadigan, o’rik, tut, yong’oq, non kabi daraxtlarni kesib g’o’la shaklida maxsus ishlangan o’choqlarda kuydirilib, ko’mir tayyorlangan. Namangan shahri Namangan viloyati markazidir. Namangan viloyati 1941- yilning 6-martida tashkil topgan. Viloyat Farg’ona vodiysing shimoliy-g’arbiy qismida Chotqol va Qurama tog’ tizmalari oldida joylashgan. Viloyatning umumiyy maydoni 7,44 ming kv



kilometr. Viloyatda Namangan shahri va 11 tumani mavjud bo’lgan. Namangan viloyatida 20 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Aholining umumiy miqdorda o’zbeklarning salmog’i 88,4 % ni tashkil qiladi. Mustaqillik yillarida Namangan shahrining qiyofasi ham tubdan o’zgardi. Namangan nafaqat gullar shahri, ayni chog’da keng va ravon ko’chalar, go’zal binolar, san’at va sport koshonalari shahri. Ma’lumki har bir hududning rivojlanish sur’atlari, obodligi va farovonligi ularning markazi bo’lgan shaharlar qiyofasida ko’zga tashlanadi. Istiqlol yillarida butun viloyat tom ma’noda gullab-yashnadi.



2-rasm. Namangan o’tmishi merosimizning bir bo’lagi.

2000-yilda Namangan shahrida viloyat shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi ishga tushrildi. 2000-yilda Universiyada sport musobaqasi o’tkazildi. 1999-yili Namangan-Toshkent yo’nalishida dastlabki aviaqatnov amalga oshirildi. 1998-yili Pahlavon sport-sog’lomlashtirish majmuasini ochilish marosimi bo’lib o’tdi.

“Boborahim Mashrab” nomidagi istirohat bog’i, hozirgi kunda Namangan shahridagi Afsonalar bog’i deb ataladi. Bu bog’ qaytadan qurilib, uning qiyofasi qaytadan butunlay o’zgartirib yuborildi. Afsonalar vodiysi bog’i O’rta Osiyoda yagonaligi bilan ajralib turadi. 2018-yilning 3-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Namangandagi madaniyat va istirohat bog’i qurilishi bilan tanishib unga “Afsona” deb nomlashni taklif qiladilar. Bugungi kunda shahar aholisini moddiy va maishiy turmush tarzini yaxshilash uchun davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Aholining moddiy ahvolini yaxshilash uchun avvalo, ularni ish bilan ta’minlash zarur. Ish bilan ta’minlash uchun esa qo’shimcha ishchi o’rinlari yaratish zarur. 2016–2019 yillarda Namangan viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi” dan kelib chiqqan holda umumiyligi qiymati 5 mlrd dollar bo’gan 342 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish nazarda tutildi. Bu loyihalar yengil sanoatga: to’qimachilik, charm-poyabzal, farmatseftika va boshqa sanoatga yo’naltirildi.

Xulosa: Namangan viloyatida joylashgan arxeologik makonlarni nafaqat O’zbekiston Respublikasidagi balki, Markaziy Osiyoda antik davrdan boshlab rivojlanganligi, buyuk ipak yo’lida joylashganligi va jahon sivilizasiyasiga, taraqqiyotiga o’ziga xos xissa qo’shganligini hisobga olib, Namanganning kamida 2000 yillik, Axsikentning 2300 yillik tarixini ilmiy asosda o’rganish, hamda uni xalqaro miqyosda targ’ib qilib, jahon tarixi durdonalari safiga olib chiqish maqsadida turli tadbirlar ham o’tkazilmoqda. Bu esa istiqlolimizning bugungi kunda bergen imqoniyatlaridan to’g’ri foydalanish va milliy o’zligimizni anglashimizni, ma’naviyatimizni yuksalishini ko’rsatib beradi.



Foydalaniman adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
2. Фуқаролик жамияти. – 2007. – №3. – Б. 5.
3. Наманган вилояти. Бунёдкорлик йўлида. 1991–2006. – Наманган, 2006.
4. Отахўжаев А. Хусусий тадбиркорлик – иқтисодиёт таянчи // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – 2007. – №.9–10.
5. <https://yuz.uz/uz/news/namanganning-yuksalayotgan-turizm-salohiyatiqtiisodiyot-rivojida-ham-muhim-orinni-egallaydi>
6. <https://www.namangan.uz/uz/yangiliklar-2/1385-namangan-xalqaro-investitsion-forumi-viloyat-iqtisodiy-salohiyati-dunyoga tanitiladi>
7. <https://namangan.uz/uz/yangiliklar-2/1606-namangan-viloyatini-barqaror-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanish-strategiyasi-muhokamasi-bolib otdi>
8. <https://xs.uz/uz/post/namanganning-ishlab-chiqarish-salohiyati-zhalolobodliklarni hajratga soldi>